Revmatik kasalliklarga qarshi preparat

Apikapsalvin – bo’g’im va mushaklarning revmatik kasalliklarini (artralgiya, mialgiya, nevrit va ishias) davolashda qo’llaniladigan mahalliy noyob dori vositadir.

Hozirda preparatning klinik tadqiqotlari yakunlangan va mazkur preparatning substansiyasi O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Bioorganik kimyo institutining tajriba bazasida ishlab chiqarilmoqda. Asalari zahari, kapsaitsinoidlar va uzum danagi yog’i asosida jamlangan surtma dori vositasi mahalliy qo’zg’atuvchilik ta’siri evaziga pereferik asab tugunlarini stimullaydi.

Apikapsalvin biriktiruvchi to’qima va mushaklarning elastikligini oshiradi, mushklarning tonusini pasaytiradi, yaxshi so’riladi, shamollashga qarshi va og’riq qoldirish xususiyatiga ega, kumulyativ xususiyatga ega emas va qo’llaniladigan dozalarda toksik emas.